

## FONETIKA

**Fayzullayeva Zeboxon Xayrulla qizi**  
*SamDCHTI talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fonetika, uning tarixi, tilshunoslikda ahamiyati va turlari, yangi til o'rganishda foydalari haqida malumotlar bayon qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *fonetika, artikulyatsion, akkustik va perceptiv fonetika, lisoniy tahlil, konsonantlar va vokalalar, intonatsiya.*

### KIRISH

Fonetika tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, bu bo'limda nutq tovushlari o'rganiladi. Fonetika yordamida tilning tovush tizimini chuqurroq o'rganish, nutqni aniq va to'g'ri ifodalash imkonini mavjud bo'ladi. Nutq tovushlarining hosil bo'lish mexanizmini o'rganish XVII asrda boshlangan VA bu hol kar va soqov insonlarni o'qitishga ehtiyoj yuzaga kela boshlagandan so'ng kelib chiqqan. Bu borada ispaniyalik olim X. P. Bonet, angliyalik olim J. Uilkins, niderlandiyalik olim I. Amman kabi olimlarning asarlarida ma'lumotlar keltirilgan. Tilning tovush tomonini har jihatdan lintvistik nuqtai nazardan o'rganish birinchi marta nemis olimi E. Zivers „Tovush fiziologiyasi asoslari“ asarida ma'lumot beradi, bu asar 1881-yilda ikkinchi nashri „Fonetika asoslari“ deb nomlanadi. Rossiyada umumiy fonetikaning rivojiga I. A. Boduen de Kurtene va uning shogirdlari V.A. Bogoroditskiy va L. V. Shcherbalar o'z asarlari bilan muhim hissa qo'shdilar.

Fonetikani o'rganishda segment va ustsegment birliklarga duch kelamiz. Nutqning tovush tomoni segment va ustsegment birliklarga bo'linadi. Segment birliklar ketma-ket joylashadi, masalan bir vaqtning o'zida 2 ta tovushni talaffuz qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni silsilali yoki ketmaket birliklar deb hisoblash mumkin. Ustsegment birliklarga urg'u va ohang, ya'ni intonatsiya kiradi. Bu birliklar segment birliklar ustiga qo'yiladi va ularga turlicha tus beradi. Masalan, jumla so'zlar birikmasidan tashkil topgan va ma'no ifodalovchi katta sintaktik birlik hisoblanadi. Misol: "Men kitobni o'qidim". Maqola esa bir yoki bir nechta jumladan tashkil topgan matnning ma'lum bir qismiga tegishli bo'lgan tuzilma. Masalan: "Bu maqolada ta'lif va tarbiyaning uzviy bog'likligi haqida gapiriladi."

### ARTIKULYATSION, AKKUSTIK VA PERSEPTIV FONETIKA

Fonetikada artikulyatsion, akkustik va perceptiv fonetika kabi yo'nalishlar bor. Artikulyatsion fonetika nutq tovushlarining qanday hosil bo'lishini va ularning tovush apparatida, ya'ni og'iz, til, lablar, bo'g'iz va boshqalarda qanday shakllanishini o'rganadi. Bu yo'nalish tovushlarning talaffuzi jarayoniga e'tibor qaratadi, masalan tovushlarning qanday qilib ajralib chiqishini va bir-biriga qanday bog'lanishini tahlil qiladi. Akkustik fonetika nutq tovushlarining fizikal xususiyatlarini, ya'ni tovushning

chastotasi, balandligi, uzayishi va kuchini o'rganadi. Bu yo'nalish tovushlarning qanday to'lqinlar shaklida tarqalishini va ularning ovoz harakatlanishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Perseptiv fonetikada esa tovushlarning inson tomonidan qanday qabul qilinishi o'rganiladi, ya'ni, qanday qilib bizning quloq va miyamiz tovushlarni farqlash va talqin qilish tizimlari ko'rib chiqiladi. Bu yo'nalish bizga tovushlarni sezish, tanish va farqlash jarayonlarini tushunishga yordam beradi.

### **TIL O'RGANISHDA FONETIKANING AHAMIYATI**

Fonetika til o'rganishda muhim ahamiyatga ega, chunki to'g'ri talaffuzni o'rganish uchun tovushlar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish zarur. Fonetika tilning tovush tuzilishini o'rganishi va ularni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishi tufayli bizga bu borada yordam beradi. Har bir tilning o'ziga xos fonetik xususiyatlari mavjud. Ayniqsa, chet tillarini o'rganishda ushbu tildagi ayrim tovushlar va ularning talaffuzida fonetikani bilish vaziyatni yengillashtiradi. Yana o'rganilayotgan til bo'yicha eshitish qobiliyatida tovush tuzilishini tushunib, har xil tovushlarni aniqlash va ajratish imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni tovushlarning ma'noga ta'sirini o'rganish orqali, o'rganuvchi so'zlar va jumlalarni aniq tushinishi mumkin. Bu esa so'zlarning ma'nosini no'to'g'ri tushinishdan saqlaydi. Masalan, ingliz tilida "introduction" so'zi yozilgani kabi talaffuz qilinmaydi, talaffuzi „intrə'dʌkʃn“ . To'g'ri talaffuz, madaniyat hamda tilni to'g'ri eshitish va tushunish orqali samarali muloqot qilish imkoniyati qo'lga kiritiladi. Shu sabablar tufayli fonetika til o'rganishda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim element hisoblanadi.

### **FONETIKADA LISONIY TAHLIL**

Fonetikada lisoniy tahlil yoki lingvistik tahlil – tilning tovush tizimini va uning tilshunoslikdagi rolini o'rganishga qaratilgan ilmiy jarayondir. Bu usulda tovushlarning zamon va makon bo'yicha o'zgarishlari, masalan, aksent, dialektal farqlar yoki fonetik jarayonlar, ya'ni asimilyatsiya, eliziyo, degerminalizatsiya kabilari tahlil qilinadi. Lisoniy tahlil nafaqat tilning tovush tizimi, balki uning tovush strukturalari, ularning qo'llanishi va o'zgarishini, nutqdagi talaffuzini, ma'no va muloqot jarayonlaridagi o'rnni to'liq tushunishga imkon yaratadi. Bu tahlil, ayniqsa, til o'rganishda, tarjima, tilshunoslik tadqiqotlari va tilning rivojlanishini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Fonetik tahlil tilning tovush tizimini ikki asosiy turga ajratadi, bular konsonantlar va vokalalardir. Bu guruhlarda har bir tovushning talaffuz qoidalari, turlari va ularning o'zaro aloqasi chuqur tahlil qilinadi. Birinchi guruh, ya'ni konsonantlarda tovushlar, asosan, havo oqimining tutilishi yoki yo'nalishini o'zgartirishi orqali hosil bo'ladi. Masalan, p, t, k, m, n, s .

Vokalalarda esa tovushlar erkin havo oqimi bilan hosil bo'ladi va talaffuzda to'siq yoki burilishlar bo'lmaydi, ya'ni unli harflar bunga misol bo'ladi. Masalan, a, e, o, u kabilar.

Tovushlarning talaffuzi, ya'ni qanday chiqishi, fonetik tahlil orqali aniqlanadi. Shu bilan birga, intonatsiya, ya'ni so'zlarning ohangini o'zgarishi ham fonetik tahlilning bir

qismi hisoblanadi. Intonatsiya tilning ma'no yaratishidagi rolini tushunishga yordam beradi.

Fonetikaning semantikaga ham ta'siri bor. Semantikaning maqsadi tilning qanday qilib ma'no tuzishi va yaratishi, so'zlar va iboralar orasidagi munosabatlar, shuningdek, ma'nolarni qanday tushunish va ifodalash haqida bilimlarni shakllantirishga va tushunishga yordam beradi.

### **FONETIKANING PRAGMATIKASI**

Tilshunoslikda fonetikaning pragmatikasi degan tushuncha ham bor. Fonetikaning pragmatikasi – bu fonetikaning tildagi nutq va muloqotdagi kontekstual funksiyalarini, ya'ni tovushlarning nutq jarayonidagi ijtimoiy, madaniy va kommunikativ maqsadlar bilan bog'liq jihatlarini o'rganadigan bo'lmdir. Boshqacha aytganda, fonetikaning pragmatikasi tovushlarning nafaqat talaffuzini, balki ularning nutqdagi kontekstga moslashuvini, kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishdagi rolini tahlil qiladi. Ba'zi tovushlar yoki talaffuz shakllari ma'lum guruhlar yoki hududlarga xos bo'lib, ijtimoiy identifikatsiyani ifodalashi mumkin. Biror shaxsning talaffuzini tahlil qilish orqali, uning ijtimoiy statusi, yosh guruhi yoki hududi haqida ma'lumot olish mumkin. Shuningdek, talaffuzdagi o'zgarishlar, odamlar orasidagi muloqotda, tilni qo'llashda o'ziga xos madaniy yoki sinfiy me'yirlarni aks ettirishi mumkin. Fonetika, asosan, tovushlarni fizik jihatdan o'rganish bilan shug'ullanadi, lekin pragmatika bu tovushlarning ijtimoiy va kommunikativ kontekstdagi rolini ko'rib chiqadi. Masalan, biror so'zning talaffuzi yoki intonatsiyasi, uning muayyan bir kontekstdagi ma'nosini o'zgartirishi mumkin. Tovushlar, jumladan, intonatsiya, urg'u va ritm, ma'no yaratishda va kommunikatsiyada muhim rol o'ynaydi. Intonatsiya va urg'u kommunikativ vazifalarni bajarishda muhim jihat hisoblanadi. Intonatsiya so'zning yuqori va past ohangda aytishi tushuniladi, ya'ni intonatsiya yordamida so'zning to'g'ri ma'nosini tushuniladi. "Xush kelibsiz!" degan so'zning ma'nosini ifodalash intonatsiya orqali farq qiladi, chunki "xush" va "kelibsiz" so'zlarining urg'u joylashuvi boshqacha bo'lishi mumkin. Urg'u so'z yoki gapga beriladigan ahamiyatdir, ya'ni so'zda urg'u olgan muayyan bir harf boshqalariga nisbatan baland tovushda aytildi, gapda esa urg'u olgan so'z baland tovushda talaffuz qilinadi. So'zlashuvda bu jihatlarga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi, kichik bee'tiborlik ham ma'noni o'zgartirishi yoki buzishi mumkin. Bir so'zni yuqori tonda talaffuz qilish bazan savolni, bazan inkorni bildirishi mumkin, past ton esa tasdiqlash yoki ma'lum bir ma'no o'zgarishlarini anglata oladi. Fonetika va pragmatika birgalikda tovushlarning qanday noz-ne'matlarni (nuanslarni) ifodalashini o'rganadi. Masalan, kimdir biror so'zni badiiy yoki kulgili ohangda aytsa, bu so'zning asosiy ma'nosidan tashqari, uning ruhiy holatini yoki niyatini bildirishi mumkin. Fonetikaning pragmatikasi bu tovushlarni qanday qilib ijtimoiy maqsadlar uchun ishlatalishini tahlil qiladi. Fonetika pragmatikasining bir qismi sifatida, nutqning tovush shakllari, masalan, zarbalar, ajratish yoki ovozning o'zgarishi kabi ritorik

vositalar ishlatalishi kuzatiladi. Ritorik jarayonlar fonetik vositalar yordamida jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni va hissiy o'zgarishlarni aks ettirishi mumkin.

### XULOSA

Demak, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, fonetika bizga nutq tovushlarining hosil bo'lishi va usullari, akustik xususiyatlari, psixofonetik tomonlari, tovushlar va ularning talaffuzini o'rgatadigan tilshunoslik bo'limi hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.M.T.Irisqulov, Tilshunoslikka kirish, Toshkent, 1992 ;
- 2.Xozirgi o'zbek adabiy tili, 1j., T., 1966 ;
- 3.Baskakov N. A., Sodiqov A. S, Abduazizov A. A., Umumiyl tilshunoslik, T., 1979 ;
- 4.Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1qism, T., 1980 ;
- 5.Ne'matov H., O'zbek tilining tarixiy fonetikasi, T., 1994 ;
- 6.Reformatskiy A.A., Vvedeniye v yazikovedeniye, M., 1998 .